PROFESSIONAL TA’LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNI MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ro‘ziyev Furqat Ro‘ziyevich
Professional ta’limni rivojlantirish instituti, Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari



Annotatsiya

Ushbu maqola Professional ta’lim malaka oshish tinlovchilarining mustaqil o‘quv faoliyati yetakchi faoliyat hisoblanib, musaqil o‘rganish, texnologik va ta’lim loyihalarini amalga oshirish orqali tinglovchilar zamonaviy professional ta’lim mutaxasssi uchun zarur bo‘lgan malakalarni rivojlantiradi.

Kalit so’zlar: Metod tushunchasi, ta’limdagi metodlar, Malaka oshirish kurslari bo‘yicha mustaqil o‘quv faoliyati, raqamli texnologiyalar bo’yicha loyihalash.

---

[101] Столяров А.А. Свобода воли как проблема европейского морального сознания. Очерки истории: от Гомера до Лютера. – М.: Греко-латинский кабинет Ю.А. Шичалина, 1999. – 208 с.

[102] Столяров А.А. Свобода // Новая философская энциклопедия: в 4 т. / под ред. В. Степина, А. Гусейнова, Г. Семигина, А. Огурсова. – М., 2010. – 504 с.

Аннотация

В данной статье самостоятельная образовательная деятельность обучающихся профессионального образования рассматривается как ведущая деятельность, и посредством реализации активных учебных, технологических и образовательных проектов обучающиеся формируют навыки, необходимые современному специалисту профессионального образования.

Ключевые слова: концепция метода, методы в образовании, самостоятельная образовательная деятельность на курсах повышения квалификации, проектирование по цифровым технологиям.

Annotation

This article considers the independent educational activity of professional education trainees as a leading activity, and through the implementation of active learning, technological and educational projects, trainees develop the skills necessary for a modern professional education specialist.

Key words: concept of method, methods in education, independent educational activity on advanced training courses, design on digital technologies.

Smart texnologiyasida maqsadni qanday qo‘yish kerakligi to’liq yoritilgan. Bugun biz maqsadlarni aniqlashning eng samarali usullaridan biri - SMART usuli hisoblanadi.

SMART - bu so‘zlarni birinchi harflarining qisqartmasi. SMART: Specific – aniq maqsad; Measurable – o‘lchov; Achievable – qanday qilib; Realistic – dolzarbliligi; Timed – belgilangan vaqt. Bugun biz har bir komponentni batafsil ko‘rib chiqamiz [1].

S-specific (aniq maqsad) – malaka oshirish sharoitida tinglovchilarni mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta’lim bilan uyg‘unlikda rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

M-measurulle (o‘lchov) – tinglovchilarning mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta’lim bilan uyg‘unlikda rivojlanish darajalarini aniqlash.

A-achieveble (qanday qilib?) – tinglovchilarning mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini kasbiy ta’lim bilan uyg‘unlikda rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

R-relevant (dozarbliligi) – mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlangan professional ta’lim mutaxassisiga mutaxassislarga bo‘lgan ijtimoiy talabning yuqoriligi.

T-time-baund (belgilangan vaqt) – tinglovchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini kasbiy ta’lim bilan uyg‘unlikda rivojlantirish bosqichlari: aniqlovchi, rivojlantiruvchi, yakunlovchi.

Professional ta’lim malaka oshirishda seminar mashg‘ulotlarini olib borish metodikasi.

Seminar mashg‘ulotini olib borish tartibi: tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o‘zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab, himoya etadilar [2].

Seminar mashg‘ulotini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar: “Klaster”.

Klaster metodi -pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga hizmat qiladi [3].

*Mustaqil tayyorgarlik mashg‘ulotlari*da tadqiqotchilik metodidan foydalanildi va uning afzalligi quyidagilar:

1. tinglovchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;
2. professor-o‘qituvchi tomonidan tinglovchilarni nazorat qilishning qulayligi;
3. tinglovchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi;
4. tinglovchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi.

Tadqiqotchilik metodi. Masalani (muammoni) qo‘ygach, muammoni qisqa og‘zaki yoki yozma yo‘riqnomani tahlil qilish orqali tinglovchilar adabiyotlarni, manbalarni o‘rganadi hamda loyihalashtirish topshiriqlarini bajaradilar. Malaka oshirish jarayonida tadqiqotchilik metodining mohiyati quyidagiga olib keladi: pedagog tinglovchilar bilan birgalikda muammoni ta’riflaydi, uni yechishga dars vaqtining bir qismi bag‘ishlanadi; tinglovchilar ushbu bilimlarni o‘zlari muammoni yechish, olinajak javoblarning turli variantlarini taqqoslash jarayonida mustaqil egallaydi; natijaga erishish uchun vositalarni belgilaydi; pedagogning faoliyati muammoli masalalarni yechish jarayonini tezkor boshqarishga olib keladi. Natijaviy blok maqsadli, texnologik-jarayonli va tashxislash bloklar bilan yaqin o‘zaro aloqaga ega va tinglovchilarni ma’naviy dunyoqarashini rivojlanganlik darajasini belgilaydi [4].

Projests metodi. Projests(Loyihalash) metodi – bu tinglovchilar bir necha kun yoki hafta davomida amaliu muammoni mustaqil tayyorgarlikda hal qiladigan ta’lim metodir. Bu loyihalash va boshqa rejaga asoslangan amaliu ishlarni o‘z ishiga olishi mumkin. Loyihalar professor-o‘qituvchi tomonidan taklif qilinishi mumkin, ammo ular iloji boricha tinglovchilarning o‘zlari tomonidan individual bajariladi. Loyihalash metodi mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun aniq bilim yoki ko‘nikmalarni qo‘llash, tinglovchilarning faolligi va motivatsiyasini yaxshilashga qaratilgan.



1-rasm. Tinglovchilarning mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi

Umuman olganda tinglovchilarni mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarlik komponentlari baholash mezonlariga mos bo‘lishi kerak. Quyida tinglovchilarni mustaqil o‘quv faolityatga tayyorgarligini rivojlanganlik darajalarini (yuqori (kasbiy faoliyatli), o‘rta (intuitiv), past (reproduktiv)) baholash mezonlarini keltirib o‘tamiz.

Mezon tushunchasi - baholashga asoslangan xususiyat sifatida talqin etiladi yoki mezonlar amalga oshirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkich bo‘lib, muayyan xususiyat bilan bog‘liq bo‘lgan indikatorning elementi sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholashni ta’minlaydi [5].

Mezon - ob’ekt yoki hodisani tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan alohida xususiyat bo‘lib, har qanday soha mutaxassisligida umumiy mezonlar tavsifi uning mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligi hisoblanadi. Shu sababdan o‘rganilayotgan mezonlari professional ta’lim mutaxassislarining mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarligini ob’ektiv va sub’ektiv xususiyatlar orqali asoslab berishda o‘rinli bo‘ladi. Ushbu mezonlar metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan holda quyidagi mazmunda keltirildi:

Motivatsion mezon - shaxsning alohida muhim qadriyatlari, motivlar majmui va samarali mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Mazkur mezon mustaqil o‘quv faoliyatni namoyish qilishning ijobiy motivatsiyasi, darajasini oshirishga qiziqish, professional ta’limni rivojlantirish, bozor iqtisodiyotini ichki qabul qilish, raqobat, hamkorlik, qarama-qarshilik, ijtimoiy maqsadlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi, ehtiyoj kabi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi.

Kognitiv mezon – raqamli texnrlogiyalar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, mustaqil o‘quv faoliyatning asosini tashkil etuvchi, real kasbiy muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilish yo‘lini tanlay olishni ta’minlovchi zarur huquqiy bilimlar majmuini bilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur mezon raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilimlarning to‘liqligi, izchilligi, anglanganligi, mustaqil o‘quv faoliyatni yuritish bo‘yicha bilimlarni, zamonaviy raqamli texnologiyalar bo‘yicha tushunchalar va huquqiy bilimlarni egallaganlik kabi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi.

Faoliyatli mezon - tegishli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, kasbiy muammolarni hal qilish yo‘llarini tanlash, kasbiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va tajribalari majmui bilan ifodalanadi. Ko‘nikma vaziyat, muammo, maqsad, usul va shart-sharoitlarni amalga oshirish mexanizmi orqali anglashni nazarda tutar ekan, bilimlarni amaliy vaziyatda qo‘llash va ma’lum faoliyat usullarini yangi sharoitga mustaqil o‘tkazishdir. Mazkur mezon maqsadni belgilash ko‘nikmalari (muammoni aniqlash va tezkor maqsad qo‘yish va uni vazifalarga taqsimlash), tadbirkorlik ko‘nikmalari (zarur resurslarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, zarur resurslar bilan ta’minlash, ularni samarali taqsimlash, o‘zaro bog‘liqlikdagi harakatini tashkil etish), marketing ko‘nikmalari (talabni yaratish va qondirish), me’yoriy-huquqiy, hujjatlarni tushunish va amalga oshirish qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi [6].

Refleksiv mezon – professional ta’lim mutaxassislarining mustaqil o‘quv faoliyat vektorini tavsiflovchi muhim shaxsiy fazilatlarni, irodaviy sifatlarni shakllantirish, vakolatini tushunish, qarorlarni qabul qilishda mustaqillik, kreativ fikrlash, refleksiya va tafakkurni aks ettiradi. Mustaqil o‘quv faoliyatga tayyorgarlikning muhim komponenti sifatida tafakkurni rivojlantirish, kasbiy muhim hodisalarni oldindan ko‘ra olish, tahlil qilish qobiliyatlari nazarda tutiladi. Mazkur komponent aqliy sifatlarning (mustaqillik, tafakkur, o‘ziga xoslik,...) shaxsiy sifatlarning (mas’uliyat, odoblilik, moslashuvchanlik,...) va malakalarning (kasbiy muloqot ko‘nikmalari, muzokara olib borish qobiliyati va boshqalar) mavjudligi, namoyon bo‘lishi va barqarorligi, irodaviy sifatlarni namoyon etish (qat’iyatlilik, huquqiy normalarga rioya qilishga tayyorlik) kasbiy muammoli (stressli) vaziyatlarda hissiy barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi. Refleksiv mezon mutaxassisning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholashni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.
8. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta’lim texnologiyalari asosida bo’lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. “Zamonaviy ta’limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O’zDJTU. 188-191 betlar.
9. Murodova A. B. Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy layoqatlarin shakllantirishning pedagogik-psixologik o’ziga xosliklari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 259-263.
10. Hamidov J., Muradova A. Technology for development of professional and technical components of future engineers through virtual educational technology.
11. Muradova A. Technology of development of professional and technical component of future engineers by means of virtual education technology //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B2. – С. 306-311.